

**ROSSIYA FEDERATSIYASIDA HAVO-DESANT QO'SHINLARI
MUTAXASSISLIGI BO'YICHA KADRLARNI TAYYORLASH**

Xasanov Erkin Baxtiyorovich

Podpolkovnik, O'RQK akademiyasi tinglovchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ryazan oliy havo-desant qo'shinlari qo'mondonlik bilim yurtiga o'qishga kirish va havo-desant qo'shinlari qo'mondonligi mutaxassisligini o'rganish bo'yicha o'quv jarayoni yoritilgan. Shu maqola orqali chet el harbiy oliy bilim yurtlarini o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

Kalit so'zlar: harbiy kadrlar, professional ta'lim, havo-desant qo'shinlari, fakultet, harbiy ixtisoslik, radio, radiorele, troposfera, sun'iy yo'ldosh, o'quv jarayoni, imtiyoz, shartnoma, parashyut, parashyut sistema, qurol va harbiy texnikalar.

Ryazan oliy havo-desant qo'mondonlik bilim yurti 1918 yil 18 noyabrda birinchi bo'lib sovet bazasidagi Ryazan piyoda qo'shinlari negizida tashkil etilgan.

Bilim yurti asosiy bo'linmalari bilim yurti boshqarmasi, kursantlar batalyoni, o'quv va ilmiy ishlar bo'limi va o'quv jarayonini ta'minlash batalyonini o'z ichiga oladi.

Bilim yurtida yuqori professional mutaxassis harbiy kadrlarni tayyorlashda 5 ta oliy professional ta'lim bo'yicha, 1 ta maxsus fakultet, 1 ta chet el harbiy xizmatchilarini tayyorlash fakulteti, 8 ta o'rta professional ta'lim yo'nalishdagi fakultetdan tashkil topgan.

Shuningdek hozirgi vaqtda havo-desant qo'shinlari bo'linmalari komandiri va avtomobil texnikalarini qayta ishlatish va qo'llash ixtisosligi fakulteti, havo-desant taktik komandirlarini tayyorlash ixtisosligi fakultetlarida, shuningdek shartnoma asosida dunyoni 18 mamlakatidan harbiy kadrlarni tayyorlab kelmoqda.

Bilim yurtida oliy professional ta'lim yo'nalishda havo-desant qo'shinlariga havo-desant taktik komandiri bo'yicha esa, razvedka qo'shunlarini boshqarish, havo-desant qo'shinlari aloqa bo'linmalarini boshqarish, havo-desant bo'linmalarini boshqarish ikki yo'nalishda “Desant bo'linmalarini boshqarish” va “Dengiz piyoda bo'linmalarini boshqarish” ixtisosligi bo'yicha harbiy kadrlarni tayyorlab kelmoqda.

Ryazan havo-desant qo'mondonligi bilim yurtida 2008-yil iyul oyidan buyon 18 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan ayollarga “Desant bo'linmalarini ta'minlashni boshqarish” ixtisosligi mutaxassisligi bo'yicha harbiy ta'lim berib kelinmoqda. Bu kursantlar kelajakda ofitser bo'lib parashyut sistemalarini taxlash vzvodi komandiri lavozimiga tayinlanib havo-desant qo'shinlarini parashyutdan amaliy sakrashlarini, shuningdek ko'p gumbazli parashyut sistemalaridan platforma yordamida jangovar texnikalarni desantlashtirishda qo'l ostidagi bo'linmalarini boshqarish vazifalari uchun

lavozimlarga tayinlanadi. Bilim yurtida oliy va o'rta ta'limdan keyin havo-desant qo'shinlari harbiy xizmatchilariga malaka oshirish fakultetida harbiy ixtisoslik yo'nalishlarida ham harbiy ta'lim berish yo'lga qo'yilgan.

Bilim yurtida harbiy kadrlarni tayyorlashda, taktika, jangovar ta'minot, otish tayyorgarligi, gumanitar ijtimoiy fanlar, havo-desant tayyorgarligi, zirhli tank texnikalar, harbiy texnika va qurollarni ishlatish, bo'linmalarni boshqarish, jismoniy tayyorgarlik, tillar, aniq fanlar, umumiy maxfiylashtirilgan xabar uzatish, radio, radiorele, troposfera, suniy yo'ldoshli va simli aloqa, aloqani tashkillashtirish va telekommunikatsiya tizimi, harbiy texnikalarni qayta tiklash, dvigatel va elektr jihozlarni tamirlash kafedralarida yuqori malakaga ega bo'lgan 252 nafar professor o'qituvchilar ulardan 21 nafar fan doktori, 63 nafar fan nomzodi, 168 nafar professor o'qituvchilar bilim yurti kursantlariga ta'lim berib kelmoqda.

Bilim yurtiga nomzodlarni qabul qilish umumiy ta'limga ega bo'lgan yoki o'rta maxsus ixtisosligi bo'yicha ta'lim olgan fuqarolar, shuningdek harbiy xizmatni o'tayotgan va shartnoma asosidagi harbiy xizmatchilar qabul qilinadi.

Harbiy xizmatni o'tamagan fuqarolar 16 yoshdan 22 yoshgacha, harbiy xizmatni o'tagan va harbiy xizmatni o'tab kelayotgan fuqarolar va shartnoma asosidagi harbiy xizmatni o'tayotgan xizmatchilar 24 yoshgacha qabul qilinishi me'yoriy hujjatlarda belgilangan.

Imtiyozlarga ega bo'lgan bilim yurti kursantlari 2-bosqich yakunida bilim yurtini bitirgandan so'ng, xizmatni davom ettirish uchun 5 yil muddatga shartnoma tuzadilar. Shartnoma tuzilgandan so'ng bir vaqtning o'zida kursantlarga 2 (ikki) moyana puli miqdori to'lanadi.

Shartnoma tuzgungacha bo'lgan vaqtda kursantlarni maxfiy hujjatlar bilan ishlashi va qiyin xizmat sharoitlarda xizmat olib borishi uchun qo'shimcha tarzda qo'shilgan oylik maoshi 3000-4000 rublni tashkil etadi. Shartnoma tuzilgandan so'ng kursantlarni oylik maoshi 15000-20000 rublni tashkil etadi. Bilim yurtining shartnoma tuzgan kursantlari shaxsiy tarkibiga sakrash vazifasi bo'yicha 6 ta amaliy sakrash mashqini tashkil etadi. Agar dastur bo'yicha sakrash vazifasini bajargan bo'lsa 1 oy xizmati 1,5 oyga hisoblanadi.

Kursantlar dasturi bo'yicha sakrash vazifasini bajargan bo'lishsa keyingi yil uchun har oy moyanasiga 20% foiz miqdorida pul qo'shib to'lanadi. Bilim yurtini tamomlagan kursantlarga oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom berilib bitiruvchilar havo-desant qo'shinlari tarkibiga komandirlik lavozimiga tayinlanadi. Bilim yurtini tamomlagandan so'ng xizmati davrida bir yildan so'ng katta leytenant harbiy unvoni beriladi [1]. O'quv jarayonini tashkil etilishi va olib borilishi o'quv jarayoni bilim yurtida boshqa harbiy ta'lim oliy bilim yurtlaridan farq qilib, o'quv jarayoni nazariy va amaliy asoslari bo'yicha olib boriladi. O'quv jarayonini davriyligi 10 o'quv oraliq nazoratiga bo'linib, o'quv yili 2 o'quv oraliq nazoratga bo'linadi. O'quv oraliq nazorati

yakunida o'quv rejasiga muvofiq yakuniy imtihon sessiyalari bo'lib o'tadi. Nazariy ishlarni asosiy shakllarini ma'ruza, seminar sinfdan tashqari maslahatlar tashkil etadi. Nazariy bilimlarni mustahkamlash maqsadida vaqti-vaqti bilan laboratoriya va nazorat ishlari o'tkaziladi. O'quv guruh kursantlari bilan amaliy, guruhiy mashqlar, taktika mashg'ulotlari va o'quv mashg'ulotlari, amaliyotini bajaradilar. 2 bosqichdan boshlab kursantlar har bir bosqich yakunida “kurs ishlari” topshirishga majbur, o'z bilimlarini oshirishda har bir mustaqil ish uchun kursantlar rag'batlantiriladi.

Har yili o'qish davomida kursantlarga dala o'quv mashg'ulotlari o'tkaziladi. Dala o'quv mashg'ulotlari bilim yurti o'quv dala markazida o'tkaziladi.

Bundan tashqari kursantlar 4-bosqichda havo-desant qo'shilmalarida amaliyot bosqichini o'tashadi [3]. Havo-desant qo'shinlari fakultetida o'qish davomiyligi 5 yil bo'lib, o'qish davomida fakultet kursantlariga harbiy ta'lim berish vazifasi asosini belgilaydi va havo-desant tayyorgarligi fanidan- jami 950 soat undan 250 soati amaliy sakrash va desantlashtirish mashqlari bajariladi, shuningdek bo'linmalar sakrash vazifasiga ko'ra o'qish davomida razvedka vzvodi bo'linmasi 35-40 marta, havo-desant xizmati ofitserlari vzvodi bo'linmasi 43-45 marta, boshqa bo'linmalar 37 marta va undan 9 martasi IL-76 samolyotidan amaliy sakrashlarni bajarish belgilangan.

Havo-desant tayyorgarligi fanidan davlat imtihonlarini “A'lo” bahoga topshirgan kursantlarga “Havo-desant tayyorgarligi yo'riqchisi” maxsus unvoni beriladi [4]. Havo-desant tayyorgarligi fanlari bilim yurtining asosiy fanlaridan biri hisoblanib havodesant boshqaruvi hujjatlarini bilishini, havo-desant texnikasini moddiy qismlarini va to'g'ri ishlatishni, komandir desantchilarni bo'linmalarini boshqara olishi bo'yicha puxta tayyorlash, qurol-aslaha harbiy texnikani, barcha turdagi havo-desant tayyorgarligi mashg'ulotlarini shaxsiy tarkib bilan o'tkazishni tashkillashtirishni bilish maqsadida ofitserlarni tayyorlaydi.

Havo-desant tayyorgarligi tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, 1941 yil 2-Jahon urushi davriga to'g'ri keladi. Havo-desant qo'shinlariga yuqori malakali kadrlarni tayyorlash zaruriyati tug'ilganligi sababli bo'linmalarni boshqarish va ularni tayyorlash bo'yicha bilim yurtida havodesant qo'shinlari komandirlarini tayyorlash bo'yicha maxsus yo'nalishda harbiy kadrlarni tayyorlash olib borilgan. 1964 yil harbiy qo'shinlarga yangi turdagi havo-desant texnikalari kirib kelishi sababli havo-desant tayyorgarligi talablarini bajarishda havo-desant qo'shinlari tarkibi ofitser kadrlarni tayyorlash maqsadida bilim yurtida havo-desant tayyorgarligi kafedrasini tashkil etilgan.

Havo-desant tayyorgarligi fanida o'quv jarayonini ta'minlash maqsadida havo-desant texnikalarini moddiy qismlarini qurol va harbiy texnikalarini, boshqa yuklarni desantlashtirish qoidalarini o'rgatish, ko'p gumbazli parashyut sistemalarini moddiy qismlarini va taxlash bosqichlarini o'rgatish, harbiy ilmiy ishlarni bajarish, kichik o'ramdagi yuklarni desantlashtirishga tayyorlash, havo-desant tayyorgarligi mashg'ulotlarini tashkillashtirish va o'tkazishni o'rgatish, parashyutdan sakrashlarni

o'tkazish va tashkilashtirishni o'rgatish, harbiy texnikalarni platformasiz desantlashtirishga tayyorlashni o'rgatish, platforma yordamida harbiy texnikalarni va yuklarni desantlashtirishga tayyorlashni o'rgatish sinflari va havo-desant shaharchasida havodesant tayyorgarligidan mashg'ulotlar olib boriladi [2].

Shunday qilib shuni xulosa qilish mumkimki, bilim yurtida o'qish istagida bo'lgan umumiy va o'rta maxsus ta'limga ega bo'lgan fuqoralarga kirish imtihonlariga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha boshlang'ich tayyorgarlik bosqichlarini yo'lga qo'yish;

Bilim yurti havo-desant bo'linmalari shahsiy tarkibi bilan sakrash vazifasiga ko'ra amaliy sakrash mashqlarini o'tkazish bilim yurti boshlig'ining buyrug'iga asosan tashkillashtirish;

Havo-desant bo'linmalarini amaliy sakrash mashqlarini bajargandan so'ng real jangovar harakatlarga yaqinlashtirgan holda dushman front ortidagi taktik harakatlar usullarini amalga oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Фральцов, Т.А. От суворовского училища до военной академии / Т.А. Фральцов // Ж. Армейский сборник, 2010. - № 6. – С. 17-20.
2. Ясинский, И.М. Качество в системе военного образования / И.М. Ясинский // Армейский сборник, 2014. - № 6. - С 12-17.
3. Спецназ и ВДВ России. Режим доступа: <https://Lenta.ru>. Дата обращения – 25.04.2022.
4. Войска ВДВ сегодня. Режим доступа: <https://mil.ru>. Дата обращения – 23.04.2022.